



FARZAND RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGIYANING O'RNI

Nazarova Nigora Erdoshovna

*Roman-german filologiyasi fakulteti Nemis tili
amaliy fanlar kafedrasida stajyor-o'qituvchisi*

Choriyeva Shodiyona Bayramali qizi

*O'zbekiston Davlat jahon tillari universitet Xorijiy til
va adabiyoti fakulteti 1-kurs i talabasi*

Anotatsiya Siz ushbu maqolani o'qish davomida bolalar psixologiyasi, farzand yaxshi ulg'ayishi davomida yuzaga keladigan muammolar va yechimlar haqida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: jamiyat, bola psixologiyasi, psixika, qiyoslash metodi, meditsina psixologiyasi

Jamiyatimiz kichik -kichik oilalardan tashkil topganligi haqida ma'lumotlarga egamiz. Jamiyatimiz rivoji uchun bir qancha islohotlarni amalga oshirish lozim. Avvalo, ilk islohot bu yoshlar bilan bog'liq hisoblanadi. Farzand oilaning tayanchi bo'lsa, oila jamiyat yuksalishi uchun eng birinchi qadam bo'lib, bola ulg'ayishi davomida doim oilada yaxshi muhitni ko'ra olishi kerak. Chunki har bir yosh avlod uchun ota-ona tarbiyasi va e'tibori juda muhim bo'lib, ular doim oila a'zolaridan yaxshi munosabatni kutishadi. Bola yetuk bo'lishi uchun ota - onalar birinchi navbatda bola psixologiyasi bo'limi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Faqatgina hayotiy tajriba farzandlarimiz uchun yetarli emas. Biz bu bo'yicha ilmiy bilimga ham ega bo'lishimiz lozim. Aslida bola psixologiyasi nima?

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va boshqalar) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang, kesma va longitudinal deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi.

Yosh bolalarda kuzatilgan barcha holatlar ushbu bo'limda o'rganiladi. Bola doim qiziqqon bo'ladi. Ko'ziga ko'ringan buyum haqida ma'lumot olishga harakat va atrofda gildanidan so'rashga intiladi. Tez va qisqa muddatda ular oddiy so'zlarni o'rganib olishadi. Bunday vaziyatlarda ota-ona farzandining savollariga javob bera olishi va yanada qiziqarliroq tarzda bolaning fikrlashiga yordam berish ham asosiy o'rin tutadi. Farzandga noto'g'ri yo'nalish bilan tarbiya berilsa achinarli holatlarga olib keladi. Bolalarga ota- onalar o'z muammolarini ko'rsatishi ham maqsadga muvofiq emas. Farzandning ko'z o'ngida janjallashish yosh bola uchun juda yomon holat bo'ladi. Bolaning psixologiyaga qattiq ta'sir qiladigan holat uning ongida,



xotirasida qoladi. O‘sha bola katta ehtimol bilan kelajakda xuddi shunaqa ota yoki ona bo‘lib yetishi mumkin. Bu esa keyingi avlodlarga ham asosiy to‘siq bo‘lib qoladi. Agarda bolada ajoyib qobiliyat bo‘lsa, uni rivojlantirishga yordam berish va sharoitlar yaratib berishsa, bola yanada shaxs sifatida o‘zini namoyon etishga harakat qiladi. Tanganing ikkinchi tomoni bor bo‘lgani kabi bolaga imkoniyat bermay o‘zimiz uni boshqarishga, uning qarorlarini o‘zimiz qabul qilsak, ularga yomon ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini haqida mulohaza yuritish lozim. Umuman psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Shular to‘g‘risida umumiy psixologiya kursida keng ma‘lumotlar berilgan. Yosh davri va deferensiya psixologiya fani ham psixologiyaning boshqa sohalari singari o‘ziga hos ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Quyida atoqli psixolog B.G. Ananov tavsiya qilgan klassifikatsiyaga asoslanib, mazkur metodlarning xususiyatlarini yoritishga harakat qilgan.

B.G. Ananov psixikani o‘rganish metodlarini to‘rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki statistik, natijalarni shaxlash metodlari deb nomlagan. Bu guruhlar o‘zining maqsad va vazifasi bo‘yicha yana bir necha toifa hamda turlariga bo‘linadi. Quyidagi mazkur metodlarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari hamda qiyosiy tavsiya berildi. Tadqiqot metodlarining birinchi – tashkiliy guruhi o‘z ichiga qiyoslash, longityud (o‘zluksiz), kompleks (ko‘pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi. Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, sotsial psixologiya (katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o‘zaro taqqoslash), meditsina psixologiyasi (sog‘lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlariga qiyoslash), sport psixologiyasi (sportchilarning holati, o‘quvligi va ishchanligini o‘zaro taqqoslash) kabi fanlarda unumli foydalaniladi.

Yuqoridagi aytib o‘tilgan ma‘lumotlardan xulosa chiqarish mumkinki, farzand tarbiyasi, ilmiy bo‘lishi uchun ota -ona obrazlari yordamchi hisoblanadi. Psixologik bilimlar ega bo‘lgan har bir inson yaxshi avlod tarbiya qila olishi va kelajagini porloq bo‘lishiga qo‘llab -quvvatlashi bilan birgalikda jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bolalar_psixologiyasi
2. <https://azkurs.org/i-oquv-materiallari-maruza-boyicha-oquv-materiallari.html?page=9>